Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies
Hosted online from Moscow, Russia
**Date:** 11th May - 2024
ISSN: 2835-5733 **Website:** econferenceseries.com

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

# QORAQALPOǴISTON SHAROITIDA ASALARCHILIK KADASTRINI YURITISH

Tursınbekova Gúlmira
06.01.10- «Yer tuzish, kadastr
va yer monitoringi» ixtisosligi boʻyicha 1-bosqish tayanch doktoranti.

Reimov Nietbay
qishloq xójaligi fanlari doktori, docent.
Qoraqalpoǵiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar
institutining «Yer kadastri va yerdan foydalanish» kafedrasi.

**İzoh -** Qoraqalpoǵiston sharoitida asalarchilik kadastrini tashkillashtrish va takomillashtirish orqali Respublikaning yer resurslaridan oqilana foydalanish va asalarichilik sohasini qishloq xójaligining muhim tarmoǵiga aylantrish. Asalarchilik kadastrini tashkillashtrish bilan bir qatorda yerlardan foydalanish kórsatkichini yuqorilatıш va qishloq xójaligi ekinlaridan rejalashtirilgan hosil miqdorini oshirish va unum turlarini kópaytirmoq vazifalarini hal etishga moljallangan.

**Аннотация -** Путем организации и усовершенствований кадастра пчеловодства в условиях Каракалпакстана, рационального использования земельнıх ресурсов республики и превращения отрасли пчеловодства в важную отрасль сельского хозяйства. Помимо организации кадастра пчеловодства, он призван решить задачи повıшения интенсивности использования земель, увеличения плановой урожайности сельскохозяйственнıх культур и увеличения видов сельскохозяйственнıх культур.

**Annotation -** By organizing and improvements the beekeeping cadastre in the conditions of Karakalpakstan, rational use of the land resources of the Republic and turning the beekeeping industry into an important branch of agriculture. In addition to the organization of the beekeeping cadastre, it is intended to solve the tasks of increasing the rate of land use, increasing the planned yield of agricultural crops and increasing the types of crops..

E- CONFERENCE SERIES

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

**Kalit suzlar** – Qoraqalpoǵiston sharoitida, asalarchilik kadastri, yer, ekin, hosil, iqtisod, yer tuzish, global iqlim, motivaciya, mutaxassis.

**Ключевıе слова** - В условиях Каракалпакстана, кадастр пчеловодства, земля, урожай, урожай, экономика, землеустройство, глобальнıй климат, мотивация, специалист.

**Keywords** - In the conditions of Karakalpakstan, beekeeping cadastre, land, crop, crop, economy, land management, global climate, motivation, specialist.

## Kirish

Asalarchilik fermer xójaliklarin tashkillashtirish va olib boorish qishloq xójaligida tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan fermer xójaliklarining huquqiy va tashkillashtirilgan tartiblarini, asalari oilasini parvarishlashda ilǵor texnologiyalarni qóllash va ishlab chiqarishni oshirish yóllarini va sifatli mahsulot yetishtirishni talab qiladi. Mamlakatimizning agrar tarmoǵi mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida yangidan tuzilmaqda.

Xójalik yuritish va mulkchilik reformalari ózgardi. Agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar davomida mahsulot ishlab chiqarish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan táminlanishi tóǵridan-tóǵri oshdi. Xójalik yuritish normalarini tanlashda fermer xójaliklari har qanday harakatni afzalligini kórsatdi, va ular bugingi kuni asosiy xójalik yuritish normalari bólib qoldilar. Mustaqillikning dastlabki yillaridan buyon respublikamiz qishloqlarida haqiyqiy mulk egalari tarkibin shakillantirish bóyicha sifat va son tarafdan ózgarishlar boshlandi. Respublikamizda fermer xójaliklarini tashkillashtirish va rivojlantirish qishloq mehnatkashlari orasida tashkillashtiruvchi ishbilorman va ruhiy etuk shaxslarni shakillantiruvchi maydonidan zarur xisoblanadi. Fermer xójaligida yerdan foydalanish Ózbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Yer kadastri tuǵrisida»gi, «Fermer xójaligi tuǵrisida»gi va boshqa qonunlar shuningdek normativ hújjatlar bilan shakillantiriladi. Fermer xójaligi óziga tanlash asosida va ijara shartnomasiga kóra uzoq múddatli ijaraga berilgen yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xójaligi tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shuǵillanadigan, yuridik shaxs huquqlariga ega bólgan mustaqil xójalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

**Tadqiqotning maqsadi**: Qoraqalpoģiston sharoitida, asalarchilikni yanada ravajlandrish uchun kadastrli tuģri joylashishin va ishiab chiqarishga tavsiya etishdir.

**Tadqiqotning vazifasi**: Maqsadga erishish ushın quyidagi vazifalar bajariladi;

➢ Asalarchilik bilan shuģıllanadigan xójalıklarning kadastrli joylashgan joyi va faoliyati tahlillanadi;

➢ Uyalarni (yashiklerdi) kadastrli tugri joylashtrishning daraxtzorlar, paxta dolasi, boģlar aroliģina, gulli ósimliklar yonina va yaylovzorlarga joylashtrish uslublarni urganish;

➢ Daroxtzor, paxtazor, boģzor yoki yoylovzorlarga asalari uyalarini (yashikler) joylashtrish ornining kadastrli optimal joylashish aroliģini anıqlanadı.

➢ Asalarchilik yashiklarining har turdagi kadastrli joylashishin iqtisodiy natiyjaliligini, rentabelligi aniqlanadi va yaqshi kórsatkichka ega bólganlari ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida asalarchilik bilan shug'ullanayotgan Shimbay rayonidagi "Jaqsliq" fermer xo'jaligi olingan.
Tadqiqotning predmeti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi asalarchilik kadastrining tashkillashtrish ishlari majmuasi olingan .

**Tadqiqot uslublari**: Tadqiqot jarayonida málumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik hisob, usliblardan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**. Qoraqalpoģiston Respublikasida asalarchilikni rivajlantrish uchun birinshi marataba sohada mavjud zahiralardan samarali, sifatli foydalanilishini va rejalashtirilgan unimni taminlaydigan kadastri tuģri joylashish órni, óning iqtisodiy samaradorligi bilan rentabelligini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.

**Material va uslublar.** Fermer xójaliklarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati juda katta, shuning uchun yangi printsiplarga asoslangan ishlab chiqarish tarkibini ózgartirish rejasida texnologik innovatsiyalar amalga oshirilgan islohotlarning hal qiluvchi elementi hisoblanadi.

Asalarchilik xójaligida innovatsiya jarayoni fan-texnika, tashkillashtirilgan boshqarish va boshqa masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega bóladi, shuning uchun fermer xójaliklarining asalarchilikni takomillashtirishda fan-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati kundan-kunga kengayib, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Asalarchilikda innovatsiyalarning raqobatbardoshlikka erishishdagi katta imkoniyatlarga ega, shuning uchun innovatsion imkoniyatlarni kuchaytiruvchi normativ-huquqiy tuzumlari yaratilgan.

Asalarchilik fermer xójaliklarida mahsulot yetishtirishda ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini ham da xomashyo, materiallari va energiya resurslari sarfi me'yorlarini maqbullashtirish, foydalanish darajasini kópaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda qóshimcha sarflash qoidalarini kamaytirish, sotib olingan xomashyo, materiallar va mahsulotlar sifatini pasaytirish, xodimlar sonini táminlash hisobiga asalarchilik ishlab chiqarish narxlarini arzonlashtirish, raqobat chidamliligini oshirish bóyicha katta tejashlar amalga oshirilmoqda.

**Tajribaning boshlangich natijalari**. Tajribaning boshlanishi davrida biz rivojlangan davlatlar va O’rta Osiyoning ilǵor tajribalari asosida Qoraqalpoǵiston Respublikasida da asalarachilikni yana da yuqori sur`atlarda rivojlantiish imkoni borligini aniqlandi. Sababi, asalarachilikni yuritishda hozirgacha uning mavjud qo’shimcha zahiralari va aslarachilik oilalarini kadastrli tuǵri joylashtirish bo’yicha ilmiy tajribalar o’tkazilmaganligi, bunday tajribalar o’tkazilishi to’liq qo’llab quvvatlanmaganligi, ayrim olimlar o’rtasida har xulosalar qilinganligi sababli Respublikada olinishi mumkin bo’lgan maxsulotlar miqdaridan bir nechta unlagan borabar kam xosil olinayotganligini hayotning o’zi dalillayabdi. Asalarachilikdan yuqori hosil olish imkonini biz R.R.Xisamov, R.G. Farxutdinov, R.K. Tashbulatov va A.A Kulaginlarning o’tkazgan ilmiy tajribalaridan bilishimiz mumkin.

**Qisqa xulosalar**. 1.Qoraqalpoǵiston Respublikasida asalarachilik kadastrini yuqori poǵonalarda yuritish va rejalashtirilgan hosilni olish uchun asalari oilalarini imkon boricha kadastrli tuǵri joylashtirishga etibor berish zarur.

2. Asalarachilikni kadastrli tugri joylashtirish asalari yashiklarini qulay mikroiqlimli joylarga joylashtirish lozim.



E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

3. Qishloq xo'jaligi ekinlari turlarini zararkunanda va kasalliklarga qarshi amal davrida va mavsumning boshqa davrlarida agrokimyoviy vositalar bilan ishlashning asalarilar uchun teskari oqibati bo'lishi mumkin vaqtida saqlash uchun vaqtincha asalari oilalarini toza muhitli joylarga ko'chirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**;

1. Isamuxamedov A.I, Nikadambaev H.K «Asalarchilikni rivojlantirish asoslari» óquv qóllanma 2013.332-b1
2. Pulatova. R.X "Asalarchilik fermer xójaliklarini tashkillashtirish va yuritish" Kasb-hunar kolledjlari uchun uquv qóllanma 2013.108b.
3. Sulaymonóv H.E. ''Yangi O`zbekistonda asalarichilik tarmoǵining jadal rivojanishi'' Ustozlar uchun 41-son 1–tóplam fevral 2023 y. 78-80 b.
4. Xisamov R.R., Farxutdinov R.G., Tashbulatov R.K., Kulagin A.A. Toǵli ormon zonasidagi asal resurslarini kadastr baholash. Bashqortostan Respublikasi // Vestnik Udmurtskogo universiteta. - 2014. - № 2. - S. 41-49.

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES